



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI ANDIJON VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

Andijon viloyatida
kichik tadbirkorlik

2023-yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **24,6** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,0** mingtaga kamaygan yoki **36,3 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,6** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023-yilning yanvar-sentabrida **3,3** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,9 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2019-2023-yillar 1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2023-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2022-y.		2023-y.
38 547	Andijon viloyati	24 559
11 736	Andijon sh.	6 635
3 695	Asaka	2 136
2 800	Andijon	1 989
2 600	Shahrixon	1 766
2 142	Baliqchi	1 311
1 842	Oltinko'l	1 244
1 670	Xo'jaobod	1 232
1 668	Marhamat	1 219
1 881	Izboskan	1 180
1 833	Qo'rg'ontepa	1 180
1 490	Jalaquduq	1 053
1 584	Paxtaobod	1 037
982	Bo'ston	796
1 132	Buloqboshi	722
703	Ulug'nor	611
789	Xonobod sh.	448

2023-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **24 559** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 272** tani tashkil etdi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida **6 635** tani yoki jamiga nisbatan **27,0 %** ni tashkil etdi.

1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Ulug'nor	21,5
Xo'jaobod	14,8
Andijon sh.	14,0
Bo'ston	13,9
Xonobod sh.	10,0
Jalaquduq	9,4
Marhamat	9,4
Andijon	9,2
Baliqchi	9,0
Qo'rg'ontepa	9,0
Paxtaobod	8,4
Oltinko'l	7,8
Asaka	7,5
Buloqboshi	6,9
Shahrixon	6,8
Izboskan	6,5

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-oktabr holatiga, birlikda



2023-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,6** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan **2,1** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida **21,5** birlik, Xo'jaobod tumanida **14,8** birlik, Andijon shahrida **14,0** birlik, Bo'ston tumanida **13,9** birlik va Xonobod shahrida **10,0** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Ulug'nor tumani
– 21,5 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Xonobod shahri
– 10,0 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Izboskan tumani
– 6,5 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida **21,5** birlik, Xo'jaobod tumanida **14,8** birlik, Andijon shaharida **14,0** birlik, Bo'ston tumanida **13,9** birlik, Xonobod shahrida **10,0** birlik, Jalaquduq tumanida **9,4** birlik, Marhamat tumanida **9,4** birlik, Andijon tumanida **9,2** birlik, Baliqchi tumanida **9,0** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023-yil 1-oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarini ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Xonobod shahri

10,0

Andijon shahri

14,0

Ulug'nor tumani

21,5

Bo'ston tumani

13,9

Xo'jaobod tumani

14,8

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022-y.

2023-y.

799	Andijon sh.	764
385	Andijon	341
371	Asaka	256
342	Shahrixon	198
215	Marhamat	195
223	Oltinko'1	187
454	Baliqchi	187
254	Qo'rg'ontepa	181
244	Izboskan	167
262	Xo'jaobod	162
257	Paxtaobod	147
152	Bo'ston	144
185	Jalaquduq	109
139	Buloqboshi	104
78	Ulug'nor	101
58	Xonobod sh.	29

2023-yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Andijon sh.	23,3
Andijon	10,4
Asaka	7,8
Shahrixon	6,1
Marhamat	6,1
Oltinko'1	5,7
Baliqchi	5,7
Qo'rg'ontepa	5,5
Izboskan	5,1
Xo'jaobod	5,0
Paxtaobod	4,5
Bo'ston	4,4
Jalaquduq	3,3
Buloqboshi	3,2
Ulug'nor	3,1
Xonobod sh.	0,9


2023-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Andijon shahri (23,3 %), Andijon tumani (10,4 %), Asaka tumani (7,8 %), Shahrixon tumani (6,1 %), Marhamat tuman (6,1 %), Oltinko'1 tumani (5,7 %) hamda Baliqchi tumani (5,7 %) hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023-yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (1 411 ta), sanoatda (674 ta) hamda boshqa xizmatlar sohasida (255 ta) yangidan tashkil etilgan.


Viloyatimizning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (764 ta), Andijon tumanida (341 ta) hamda Asaka tumanida (256 ta) yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023-yillarning yanvar-sentabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023-yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **23 433** ta kichik korxona va mikrofirma yangitdan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **8 693** (yoki **37,1 %**) ta, sanoat sohasida – **6 252** (yoki **26,7 %**) ta, xizmat sohasida – **4 175** (yoki **17,8 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 689** (yoki **11,5 %**) ta va qurilish sohasida – **1 624** (yoki **6,9 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo



Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi




Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import


■ 2022-y. ■ 2023-y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2023-yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,6** % ni tashkil qilib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'zgarmagan.




2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **96,1** % ni, yo'lovchi aylanmasida **95,2** % ni, yo'lovchi tashishda **92,9** % ni, chakana savdoda **82,8** % ni, qurilishda **76,6** % ni, yuk aylanmasida **69,7** % ni tashkil etdi.

Tarmoqlarning YAHMdagi ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Andijon sh	1 836,1
Xo'jaobod	1 111,7
Shahrixon	1 056,0
Qo'rg'ontepa	921,8
Baliqchi	904,0
Izboskan	886,6
Andijon	787,4
Xonobod sh	675,0
Jalaquduq	647,1
Asaka	441,2
Oltinko'l	402,0
Buloqboshi	344,4
Paxtaobod	332,9
Ulug'nor	239,0
Marhamat	200,0
Bo'ston	196,7

2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **10 982,0** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (**1 836,1** mlrd. so'm), Xo'jaobod (**1 111,7** mlrd. so'm), Shahrixon (**1 056,0** mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (**921,8** mlrd. so'm), Baliqchi (**904,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Bo'ston tumanida (**196,7** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2023-yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 22,7 % ni tashkil etdi.




2023-yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bulqoboshi (100,0 %), Izboskan (100,0 %), Shahrixon (86,5 %), Andijon (82,2 %), Baliqchi (68,7 %), Ulug'nor (65,9 %), Xo'jaobod (64,2 %), Jalaquduq (62,6 %), Bo'ston (57,0%) hamda Qo'rg'ontepa (50,0 %) tumanlari tashkil etdi.

Bulqoboshi	100,0
Izboskan	100,0
Shahrixon	86,5
Andijon	82,2
Baliqchi	68,7
Ulug'nor	65,9
Xo'jaobod	64,2
Jalaquduq	62,6
Bo'ston	57,0
Qo'rg'ontepa	50,0
Oltinko'l	44,2
Paxtaobod	41,4
Marhamat	33,7
Xonobod sh.	33,7
Andijon sh.	27,4
Asaka	1,6

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Xo'jaobod	225,0	100,0
Paxtaobod	286,1	100,0
Shahrixon	372,1	100,0
Marhamat	216,7	100,0
Asaka	178,2	100,0
Qo'rg'ontepa	243,5	100,0
Izboskan	137,8	100,0
Buloqboshi	109,9	100,0
Bo'ston	199,8	100,0
Baliqchi	172,9	100,0
Andijon	632,6	100,0
Oltinko'l	293,3	100,0
Ulug'nor	89,0	92,2
Andijon sh.	1 708,2	91,4
Jalaquduq	119,9	87,7
Xonobod sh.	128,4	84,3

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5 113,4** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **96,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **104,6** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (**1 708,2** mlrd. so'm), Andijon (**632,3** mlrd. so'm), Shahrixon (**372,1** mlrd. so'm), Oltinko'l (**293,3** mlrd. so'm), Paxtaobod (**286,1** mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (**243,5** mlrd. so'm) hamda Xo'jaobod (**225,0** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **8 586,2** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **70,3 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan **128,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Buloqbo'shi tumani (**3576,9** mlrd. so'm), Andijon shahri (**940,8** mlrd. so'm), Xo'jaobod tuman (**783,5** mlrd. so'm), Baliqchi tuman (**417,0** mlrd. so'm), Oltinko'l tuman (**411,0** mlrd. so'm), Paxtaobod (**364,2** mlrd. so'm), Jalaquduq (**341,3** mlrd. so'm) hamda Andijon tumanida (**309,7** mlrd. so'm) qayd etildi.

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **28 618,7** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,0** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **103,9** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Jalaquduq (3 090,5 mlrd. so'm), Asaka (2 884,2 mlrd. so'm), Shaxrixon (2 609,5 mlrd. so'm), Paxtaobod (2 580,0 mlrd. so'm), Baliqchi (2 073,9 mlrd. so'm) hamda Marhamat (2 024,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Xonobod sh.	176,0	100,0
Baliqchi	2 073,9	99,9
Bo'ston	1 173,2	99,9
Andijon	1 783,0	99,7
Buloqboshi	1 590,3	99,5
Oltinko'l	1 744,0	99,0
Shaxrixon	2 609,5	99,0
Jalaquduq	3 090,5	98,9
Izboskan	1 620,5	98,6
Paxtaobod	2 558,0	98,5
Xo'jaobod	1 319,7	98,0
Asaka	2 884,2	97,6
Qo'rg'ontepa	1 909,8	95,3
Ulug'nor	1 254,9	95,2
Marhamat	2 024,5	95,0
Andijon sh.	806,7	91,7

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **13 234,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,0** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **116,8** % ni tashkil qildi.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Xonobod sh.	150,9	94,5
Ulug'nor	197,8	99,1
Bo'ston	198,9	93,2
Jalaquduq	441,2	92,7
Buloqboshi	450,5	98,6
Xo'jaobod	494,3	97,1
Izboskan	498,0	97,7
Oltinko'l	531,5	93,9
Paxtaobod	640,8	97,3
Marhamat	641,7	98,0
Andijon	834,5	91,7
Baliqchi	900,6	96,3
Qo'rg'ontepa	970,4	99,1
Asaka	1 144,6	96,5
Shahrixon	1 821,5	98,7
Andijon sh.	3 317,9	83,4

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (**3 317,9** mlrd. so'm), Shahrixon (**1 821,5** mlrd. so'm), Asaka (**1 144,6** mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (**970,4** mln. so'm), Baliqchi (**900,6** mln. so'm), Andijon (**834,5** mln. so'm) va Marhamat (**641,7** mln. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018 va 2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Andijon sh.	3 524,7
Asaka	724,3
Andijon	676,0
Baliqchi	574,3
Xo'jaobod	561,2
Izboskan	481,1
Shahrixon	466,8
Jalaquduq	466,3
Oltinko'l	457,1
Marhamat	449,8
Qo'rg'ontepa	402,5
Paxtobod	329,0
Buloqboshi	296,8
Xonobod sh.	259,9
Bo'ston	159,2
Ulug'nor	134,0

2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 962,8** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **64,6 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **106,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Andijon shahri (**3 524,7** mlrd. so'm), Asaka (**724,3** mlrd. so'm), Andijon (**676,0** mlrd. so'm), Baliqchi (**574,3** mlrd. so'm), Xo'jaobod (**561,2** mlrd. so'm), Izboskan (**481,1** mlrd. so'm) va Shahrixon (**466,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-sentabr oylarida)

4 377,8	Savdo xizmatlari	43,9
2 988,5	Transport xizmatlari	30,0
735,8	Shaxsiy xizmatlar	7,4
338,7	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,4
333,0	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,3
285,9	Ijara xizmatlari	2,9
270,2	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,7
189,2	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,9
180,1	Boshqa xizmatlar	1,8
93,1	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,9
83,0	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,8
52,4	Moliyaviy xizmatlar	0,5
34,9	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,4

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **43,9 %** (**4 377,8** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **30,0 %** (**2 988,5** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda – **7,4 %** (**735,8** mlrd. so'm) hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarida **3,4 %** (**338,7** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida **0,4 %** (**34,9** mlrd. so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSh doll.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSh doll.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **259,5 mln.** AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **29,8 %** ini tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Andijon sh.	40,5	50,2
Andijon	30,1	81,6
Shahrixon	28,5	76,7
Xo'jaobod	27,9	42,5
Asaka	21,0	4,9
Jalaquduq	13,9	47,6
Xonobod sh.	13,0	70,7
Ulug'nor	11,9	80,9
Qo'rg'ontepa	10,8	56,3
Oltinko'l	10,3	25,4
Paxtaobod	10,0	73,0
Marhamat	9,9	83,9
Izboskan	9,6	99,9
Buloqboshi	9,4	100,0
Bo'ston	9,1	52,1
Baliqchi	3,1	9,0


hajmi, mln. AQSh dollar

ulushi, % da

2023-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqboshi tumanida – **76,8 %**, Izboskan tumanida – **99,9 %**, Marhamat tumanida – **83,9 %**, Andijon tumanida – **81,6 %**, Ulug'nor tumanida – **80,9 %**, Shahrixon tumanida – **76,7 %**, Paxtaobod tumanida – **73,0 %** va Xonobod shahrida – **70,7 %** ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Asaka tumanida – **4,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023-yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **446,4** mln. AQSh dollarini yoki jami importning **16,3** % ini tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023-yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida – **100,0** %, Izboskan tumanida – **100,0** %, Ulug'nor tumanida – **99,3** %, Shahrixon tumanida – **98,9** %, Jalaquduq tumanida – **98,0** %, Paxtaobod tumanida – **84,2** %, hamda Bo'ston tumanida **81,4** % ni tashkil etdi.


Buloqboshi	100,0
Izboskan	100,0
Ulug'nor	99,3
Shahrixon	98,9
Jalaquduq	98,0
Paxtaobod	84,2
Bo'ston	81,4
Xo'jaobod	76,4
Baliqchi	71,2
Andijon	69,5
Oltinko'l	53,5
Qo'rg'ontepa	49,5
Andijon sh.	37,6
Marhamat	15,6
Xonobod sh.	9,6
Asaka	0,6

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2023-yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2 %** ni tashkil etdi. 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,4 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2023-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **79,4 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,8 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi
tashishda**

2023-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,0 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,2 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi
aylanmasida**

2023-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,4 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,2 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2023-yil **III chorak** yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 113** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **344 (31,0 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **679 (61,1 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **90 (7,9 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **42,5 % (473 ta)**, xizmatlar sohasida – **27,3 % (304 ta)**, sanoatda – **18,1 % (201 ta)**, qurilishda – **7,2 % (80 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4,9 % (55 ta)**ni tashkil etdi.

2023-yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

263	Andijon sh.	23,7
89	Andijon	8,0
90	Asaka	8,1
71	Baliqchi	6,4
31	Bo'ston	2,8
32	Buloqboshi	2,9
61	Izboskan	5,5
46	Jalaquduq	4,1
67	Marhamat	6,0
55	Oltiko'l	5,0
57	Paxtaobod	5,1
58	Qo'g'ontepa	5,2
29	Ulug'nor	2,6
47	Xo'jaobod	4,2
22	Xonobod sh.	2,0
93	Shahrixon	8,4


Respondentlar soni

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (**263** ta), Shahrixon (**93** ta), Asaka (**90** ta), Andijon (**89** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning III choragida **982** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragiga kelib esa **1 113** taga yetgan yoki 2018-yilning III choragiga nisbatan **131** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilda **547** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-sentabrida **679** ta yoki **132** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **61** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib **90** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan **29** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning III choragida 365 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragiga kelib esa 379 taga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan 14 taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning III choragida 552 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragida 560 ta yoki 8 taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2018-yilning III choragida 65 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich 80 tani tashkil etib, 15 taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning III choragida **38,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **30,9** % ga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **7,2** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018-yilda **55,7** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragida **61,0** % yoki **5,3** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **6,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich **8,1** % ga yetgan yoki **1,9** % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning III choragida **37,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **37,2** % ga yetgan yoki 2018-yilning **III** choragida o'zgarmagan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2018-yilning III choragida **56,2** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-sentabrida **55,0** % yoki **1,2** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilning III choragida **6,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **7,9** % yoki **1,3** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023-yilning III choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda – 34,6 % ni, qurilishda – 33,4 % ni, xizmatlar sohasida – 30,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi sanoatda – 72,7 % ni, qurilishda – 72,5 % ni, xizmatlar sohasida – 63,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – 14,5 % ni, sanoatda – 9,3 % ni, savdoda – 8,3 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo – **45,6 %** ni, sanoatda – **43,3 %** ni, va xizmatda – **42,1 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **74,5 %** ni, qurilishda – **63,8 %** ni, xizmatda – **53,6 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatda – **4,3 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **3,6 %** sanoatda – **3,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	34,2	56,1	9,7
Band bo'lganlar soni	12,8	80,6	6,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	32,3	59,6	8,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	26,8	64,3	8,8
Raqobat muhiti	38,2	54,7	7,1

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	45,3	50,9	3,9
Band bo'lganlar soni	23,1	72,6	4,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,1	56,8	5,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	31,1	62,4	6,3
Raqobat muhiti	44,4	50,8	4,9


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli